O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MIRSABUROVA GULBAXOR MIRAXMATOVNA

SINGULYAR KOEFFITSIYENTLI GELLERSTEDT TENGLAMASI UCHUN KOMBINATSIYALASHGAN LOKAL VA NOLOKAL SHARTLILI CHEGARAVIY MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2024

UDK: 517.956

Fizika – matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико – математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical – mathematical sciences

Mirsaburova Gulbaxor Miraxmatovna
Singulyar koeffitsiyentli Gellerstedt tenglamasi uchun kombinatsiyalashgan lokal va nolokal shartlili chegaraviy masalalar.. 3

Мирсабурова Гулбахор Мирахматовна
Комбинированные задачи с локальными и нелокальными краевыми условиями для уравнения Геллерстедта с сингулярным коэффициентом.. 20

Mirsaburova Gulbaxor Miraxmatovna
Combined problems with local and nonlocal boundary conditions for the Gellerstedt equation with a singular coefficient………………….............. 38

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works ……………………………...………….......... 42

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

MIRSABUROVA GULBAXOR MIRAXMATOVNA

SINGULYAR KOEFFITSIYENTLI GELLERSTEDT TENGLAMASI UCHUN KOMBINATSIYALASHGAN LOKAL VA NOLOKAL SHARTLILI CHEGARAVIY MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B.2024.2.PhD/FM498 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik-fizmat.nuu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ro‘ziyev Menglibay Xoltojibayevich** fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Rasmiy opponentlar:	**Ashurov Ravshan Radjabovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Urinov Axmadjon Kushakovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Ye**takchi tashkilot:**	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “___”_________ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99878) 227-12-24, faks: (+99878) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99878) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “____” _______________kuni tarqatildi.
(2024 yil “____” ___________ dagi _______ raqamli reestr bayonnomasi).

A. Sadullayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m. f. d., akademik

R. M. Jo‘rayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m. f. f. d. (PhD)

Sh.A.Alimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi,
f.-m. f. d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda ilmiy va amaliy xususiyatga ega bo‘lgan ayrim matematik modellarni o‘rganish, ko‘plab buziluvchan giperbolik va aralash tipdagi differensial tenglamalarni tadqiq etishga olib keladi. Ma’lumki, buziluvchan giperbolik va aralash tipdagi tenglamalar uchun qo‘yilgan klassik masalalarni **singulyar koeffitsiyentli buziluvchan giperbolik tipdagi tenglamalar (SKBGTT)** va **singulyar koeffitsiyentli aralash tipdagi tenglamalar (SKATT)** uchun noklassik holda ta’riflash va ularni o‘rganish ilmiy tadqiqotlarda yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Ayniqsa, hozirgi vaqtda jahonning aksariyat ilmiy maktablarida SKBGTT va SKATT uchun kombinatsiyalashgan lokal va nolokal shartlarga ega bo‘lgan chegaraviy masalalarning tadqiqi zamonaviy matematikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanmoqda. Lokal va nolokal chegaraviy masalalar nazariyasi texnika va tabiatda, jumladan, gazlar dinamikasi, neft qatlamlari holati, yer osti suvlarini filtrlash, murakkab tuzilishga ega obyektlarda issiqlik va massa almashinishi, o‘tkazgichda elektr tebranishlari, g‘ovakli muhit bilan o‘ralgan kanallarda suyuqlik harakati, aerodinamika va boshqa hodisalarni matematik modellashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Jahon amaliyotida SKBGTT va SKATT uchun lokal va nolokal shartlili kombinatsiyalashgan chegaraviy masalalarni tadqiq etish borasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu masalalarni tadqiqi yadroning nosingulyar qismida sonli parametr bo‘lgan va shu bilan birga tenglamaning o‘ng tomoni nofredgolm operatoridan iborat bo‘lgan Trikomining singulyar integral tenglamalariga olib kelib o‘rganiladi. Bu turdagi tenglamalar yangi tipdagi singulyar integral tenglamalar bo‘lganligi sababli, ular uchun maqsadli ilmiy tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyatga ega, shu jumladan; singulyar koeffitsiyentli tenglamalar uchun tenglamaning tipi o‘zgaradigan chizig‘i atrofida tenglama yechimi va uning hosilasi qiymatlarini chegaralangan yoki chegaralanmagan bo‘lishini aniqlash; kombinatsiyalashgan lokal va nolokal shartlili chegaraviy masalalarni o‘rganish; tenglamalarning kichik hadlari oldidagi koeffitsiyentlari qabul qiladigan qiymatlariga qarab korrekt masalalarni qo‘yish va ularni tadqiq etish, yangi tipdagi singulyar integral tenglamalarni regulyarizatsiyalash algoritmini ishlab chiqish, yangi ko‘rinishdagi Furye integrallarini kompleks analizning qoldiqlar nazariyasi yordamida hisoblash. Yuqorida qayd etilgan yo‘nalishlarda olib borilgan ilmiy izlanishlar tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

Respublikamizda matematik-fizika, matematik-biologiya, suyuqlik va gaz dinamikasi, yer osti va usti suvlari dinamikasi, aerodinamika kabi fundamental fanlarni rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. “Algebra va uning tadbiqlari, differensial tenglamalar va ularning tadbiqlari, nochiziqli sistemalar va matematik modellashtirish, dinamik sistemalar va ularni modellashtirish, stoxastik analiz, tibbiy-biologik informatika, hisoblash matematikasi” fanlarining ustuvor yo‘nalishlarida xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqot ishlari ko‘lamini kengaytirish, ularning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish matematika fanining faoliyat yo‘nalishlari va muhim vazifalari sifatida belgilab berilgan.[1] Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, SKATT va SKBGTT nazariyasini rivojlantirish hamda ular uchun kombinatsiyalashgan lokal va nolokal masalalarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur dissertatsiya ishining mavzusi va tadqiqot obyekti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonida, 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789 sonli va 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708 sonli Qarorlarda, shuningdek, fundamental fanga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarga mos keladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Aralash tipdagi tenglamalar uchun dastlabki fundamental tadqiqotlar italyan matematigi F.Trikomi tomonidan bajarilgan. Keyinchalik buziluvchan giperbolik, elliptik va aralash tipdagi tenglamalar nazariyasi bilan bog‘liq muammolar E.Xolmgren, S.Gellerstedt, I.Frankl, S.Moreves, G.Karatoprakliyev, M.Protter va MDHga a’zo mamlakatlar olimlaridan A.V.Bitsadze, A.A.Samarskiy, V.I.Jegalov, A.M.Naxushev, S.G.Mixlin, Yu.V.Devingtal, K.I.Babenko, M.M.Smirnov, V.F.Volkodavov, M.M.Meredov, A.I.Kojanov, S.P.Pulkin, K.B.Sabitov, T.Sh.Kalmenov, N.Yu.Kapustin, Ye.I.Moiseyev, S.M.Ponamarev, A.P.Soldatov, O.A.Repin, A.N.Zarubin, A.A.Polosin, A.V.Psxu, A.I.Kojanov, M.A.Sadibekov, A.S.Berdishev, R.S.Xayrullin va boshqalarning fundamental tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Aralash tipdagi tenglamalar nazariyasini takomillashtirish borasida mamlakatimiz olimlaridan M.S.Salohiddinov, T.D.Jurayev, Sh.A.Alimov, R.R.Ashurov, S.Abdinazarov, A.K.Urinov, J.O.Taxirov, B.Islomov, A.Xasanov, O.R.Xolmuxamedov va boshqalar salmoqli ilmiy natijalarga erishgan.

Ilmiy ishlar soni ko‘p bo‘lishiga qaramay, singulyar koeffitsientli Gellerstedt tenglamasi uchun kombinatsiyalashgan lokal va nolokal shartlili chegaraviy masalalar yetarlicha o‘rganilmagan. Shu nuqtai nazardan, mazkur dissertatsiya ishi mavzusini tanlash uning maqsad va vazifalarini belgilashda asos sifatida xizmat qildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan Oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta`lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son qarori

Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi Ф-4-32: (2012-2016) “Singulyar koeffitsiyentli Gellerstedt tenglamasi uchun Trikomi, siljishli masalalar va Bitsadze-Samarskiy shartlarini bir ta’rifda birlashtirgan masalalarning korrektligini o‘rganish” fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi quyidagilardan iborat**:**

SKBGTT uchun chegaraviy xarakteristika va unga parallel ichki xarakteristikalarda Bitsadze-Samarskiy shartlili masalani korrektligini isbotlash;

SKATT uchun bir ta’rifda Trikomi va ichki xarakteristikalarda siljishli masalalarni birlashtirgan masalani bir qiymatli yechilishini isbotlash;

SKATT uchun Trikomi sharti xarakteristikada to‘liq berilmagan hamda buzilish chizig‘ida Frankl shartiga o‘xshash shartlili masala yechimining mavjudligi va yagonaligini isbotlash.

Tadqiqotning vazifalari:

SKBGTT uchun Bitsadze-Samarskiy tipdagi yangi korrekt masalalarni ta’riflash va tadqiq qilish;

bir necha siljishli funksional tenglamalarni yechish algoritmini ishlab chiqish, yechim izlanadigan sinfni muhimligini ko‘rsatuvchi kontr misol tuzish;

SKATT uchun bir ta’rifda lokal va nolokal masalalar shartlarini birlashtiruvchi masalalarni o‘rganish;

SKATT uchun Trikomi sharti chegaraviy xarakteristika bo‘lagida berilgan va buzilish chizig‘ining kesmasida Frankl shartiga o‘xshash shartlili masalani korrektligini aniqlash;

noxarakteristik qismi nofredgolm integral operatorli, hamda yadroning nosingulyar qismi sonli parametrga ega bo‘gan Trikomi singulyar integral tenglamasini regulyarizatsiyalash algoritmini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti SKBGTTlar, SKATTlar va yadrolarining nosingulyar qismida sonli parametr bo‘lgan, hamda o‘ng tomoni nofredgolm integral operatorlari bo‘lgan singulyar integral tenglamalar.

Tadqiqotning predmeti SKBGTT va SKATT uchun kombinatsiyalashgan lokal va nolokal masalalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida maqsadga erishishimiz uchun quyidagi usullardan foydalanilgan:

bir necha siljishli funksional tenglamalarni yechish uchun ketma-ket yaqinlashish va iteratsiyalash metodlarining kombinatsiyalashtirilgan usulidan;

ekstremum prinsipi va Zarembo-Jiro prinsipidan;

ekstremum nuqtasida yechimning lokal xossasidan;

yadroning “nosingulyar” qismida sonli parametr bo‘lgan F.Trikomi integral tenglamasini regulyarizatsiyalash uchun S.G.Mixlin tomonidan takomillashtirilgan Karlemanning regulyarizatsiyalash usulidan;

Viner-Xopf integral tenglamasini regulyarizatsiyalash;

yangi Furye integrallarini hisoblashda qoldiqlar nazariyasidan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

SKBGTT uchun izlanayotgan yechimning qiymatlarini chegaraviy va unga parallel bir necha ichki xarakteristikalarda bog‘lovchi Bitsadze-Samarskiy shartlili masala birinchi marta tadqiq qilingan;

funksional tenglama yechimi izlanadigan sinfning muhimligi kontr misol yordamida ko‘rsatilgan;

bir necha siljishga ega bo‘lgan funksional tenglama ketma-ket yaqinlashish va iteratsiya metodlarning kombinatsiyalashgan metodi yordamida yechilgan;

F.Trikomi masalasi va A.M.Naxushevning ichki xarakteristikada siljishli masalasi bir masalada ta’riflanib birinchi marta o‘rganilgan;

S.G.Mixlin tomonidan takomillashtirilgan Karlemanning regulyarizatsiyalash metodi yordamida o‘ng tomonida nofredgolm operatori bo‘lgan singulyar integral tenglamalar Viner-Xopf integral tenglamasiga olib kelingan;

SKATT uchun Trikomi sharti xarakteristikada to‘liq berilmagan va buzilish chizig‘ida Frankl shartiga o‘xshash shartlili masala yechimining mavjudligi va yagonaligi haqidagi teoremalar isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ketma-ket yaqinlashish va iteratsiyalash metodlarining kombinatsiyalashtirilgan metodi yordamida bir necha siljishli funksional tenglamani yechish algoritmi qurilgan;

S.G.Mixlin metodi yordamida sonli parametrli Trikomi integral tenglamasini yechimi oshkor formula ko‘rinishida topilgan;

analitik funksiyalar nazariyasining qoldiqlar nazariyasi yordamida Furye integrallarini hisoblash algoritmi qurilgan va natijada ba’zi bir xosmas integrallar hisoblangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kombinatsiyalangan ketma-ket yaqinlashish va iteratsiya usuli, xususiy hosilali differensial tenglamalar, analitik funksiyalar va integral tenglamalar nazariyasi usullaridan foydalanib, deduktiv xulosalar qabul qilinganligi hamda teoremalarning qat’iy va to‘liq isbotlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ushbu ishda olingan ilmiy natijalardan giperbolik va aralash tipdagi xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya ishida olingan natijalarning amaliy ahamiyati, ilmiy natijalarni giperbolik va aralash tipdagi tenglamalar orqali ifodalanadigan fizik, texnik va biologik jarayonlarni matematik modelini o‘rganishda tatbiq etilishi mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot ishlarning joriy qilinishi. Singulyar koeffitsiyentli Gellerstedt tenglamasi uchun kombinatsiyalashgan lokal va nolokal shartlili chegaraviy masalalarni tadqiq qilish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

singulyar integral tenglamalarni regulyarizatsiya qilish uchun ishlab chiqilgan usullaridan 2017-2020-yillarga mo‘ljallangan “Ikkinchi va yuqori tartibli aralash tipdagi tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarning tadqiqi” mavzusidagi

№OT-Ф4-88-sonli loyihada aralash tipdagi tenglamalar uchun lokal va nolokal chegaraviy masalalarni yechishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti, 2024-yil 26-martdagi 2/132-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, elliptik-giperbolik tipdagi tenglamalari uchun ba’zi nolokal chegaraviy masalalarning bir qiymatli yechilishini isbotlash imkonini bergan;

singulyar koeffitsiyentli Gellerstedt tenglamasi uchun Bitsadze-Samarskiy shartlili masala, F.Trikomi masalasi va A.M Naxushev masalalarini bir qiymatli yechimga ega bo‘lishi haqidagi yakuniy teoremalar xulosalaridan bajarilishi 2019-2021-yillarga mo‘ljallangan “Asosiy va aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar va ularni boshqaruv masalalari hamda dinamik sistemalarni modellashtirishga qo‘llash” mavzusidagi NIOKTP AAAA-A19-119013190078-8 sonli va 2022-2024 yillarga mo‘ljallangan “Asosiy va aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy va boshqaruv masalalari va ularni taqsimlangan parametrli sistemalarni tadqiq etishda qo‘llash” mavzusidagi NIOKTP 122041800029-5-sonli loyihalarda foydalanilgan. Pirovard natijada yuklangan buziluvchi tenglamalar va aralash turdagi tenglamalar uchun lokal va nolokal chegaraviy masalalar va siljishli masalalarni tahlil qilish va tadqiq etishga imkoniyat yaratdi. (Rossiya Fanlar Akademiyasi Kabardin-Balkar ilmiy markazi amaliy matematika va avtomatlashtirish instituti, 2024-yil 10-fevraldagi 01-13/10-1-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi, elliptik-giperbolik tipdagi tenglamalari uchun ba’zi nolokal chegaraviy masalalarning bir qiymatli yechilishini isbotlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari Farg‘ona davlat universiteti Matematik analiz va differensial tenglamalar kafedrasining “Differensial tenglamalar va unga turdosh matematik sohalarning dolzarb muammolari” ilmiy seminarida, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining “Differensial tenglamalar va matematik fizika tatbiqlari” ilmiy seminarida, Termiz davlat universitetining Matematik analiz hamda Algebra va geometriya kafedralari qo‘shma ilmiy seminarida, mazkur tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 4 ta Xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan 9 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan nashrlarda, shulardan 6 tasi xorijiy va 3 tasi Respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 118 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dssertatsiyaning **“Singulyar koeffitsiyentli giperbolik tipdagi tenglama uchun Bitsadze-Samarskiy masalasi”** deb nomlanuvchi birinchi bobida buziluvchan singulyar koeffitsiyentli giperbolik tipdagi tenglama uchun izlanayotgan funksiyaning qiymatini chegaraviy va ichki xarakteristikalarda bog‘lovchi Bitsadze- Samarskiy shartlili masalaning korrektligi o‘rganilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafida Γ_1 masalaning qo‘yilishi keltirilgan.

D soha xOy tekisligining $y<0$ yarim tekisligida yotuvchi va

$$-(-y)^m u_{xx} + u_{yy} + (\beta_0 / y)u_y = 0, \tag{1}$$

tenglamaning uchlari $A(-1,0)$ va $B(1,0)$ nuqtalardan chiquvchi xarakteristikalari hamda $y=0$ o‘qining AB kesmasi bilan chegaralangan bir bog‘lamli sohasi bo‘lsin. Bu erda m-musbat o‘zgarmas son, $\beta_0 \in (-m/2, 1)$.

AB kesmada $E_1 = E_1(c_1,0)$ va $E_2 = E_2(c_2,0)$ nuqtalarni belgilaymiz, bunda $-1 < c_1 < c_2 < 1$. $I=(-1,1)$, $y=0$ o‘qining intervali bo‘lsin, $\overline{I}$ kesmada quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $p_k(x) \in C^2(\overline{I}),\ k=1,2$ funksiyani qaraymiz:

1^0. $p_k(x)-$bu $\overline{I}=[-1,1]$ kesma nuqtalaridan iborat to‘plamni, $[c_k,1]$, $k=1,2$ nuqtalar to‘plamiga mos ravishda akslantiruvchi diffeomorfizmdan iborat;

2^0. Ushbu $p_2(x) > p_1(x) > x$, $\forall x \in \overline{I} \setminus \{1\}$, $p_k(-1)=c_k$, $p_k(1)=1$ munosabatlar o‘rinli.

Misol sifatida $p_k(x) = b_k x + a_k$, $k=1,2$ chiziqli funksiyalar keltirilgan, bu erda $a_k + b_k = 1, a_k - b_k = c_k$.

Ushbu belgilashlarni kiritamiz

$$\theta(x_0) = \frac{x_0-1}{2} - i\left[\frac{m+2}{4}(1+x_0)\right]^{\frac{2}{m+2}},\ \theta_k^*(p_k(x_0)) = \frac{p_k(x_0)+c_k}{2} - i\left[\frac{m+2}{4}(p_k(x_0)-c_k)\right]^{\frac{2}{m+2}},$$

bu erda $\theta_0(x_0)$ va $\theta_k^*(p_k(x_0))$ mos ravishda (1) tenglamaning $(x_0,0)$ va $(p_k(x_0),0)$ nuqtalaridan chiquvchi xarakteristikalarining AC va E_kB_k xarakteristikalar bilan kesishish nuqtalarining affikslari.

Γ_1 ***masala.*** D sohada (1) tenglamaning quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x,y) \in C(\overline{D}) \cap C^2(D)$ yechimi topilsin:

$$u(x,0) = \tau(x),\ x \in \overline{I}, \tag{2}$$

$$u[\theta_0(x)] = \mu_1 u[\theta^*{}_1(p_1(x))] + \mu_2 u[\theta^*{}_2(p_2(x))] + \rho(x),\ x \in \overline{I}, \tag{3}$$

bu erda $p_k(x)=b_k x+a_k,\ k=1,2$ chiziqli funksiyalar $\mu_1,\ \mu_2$ - berilgan musbat sonlar va $\tau(x)\ ,\rho(x)\in C^2(\overline{I})$ ma'lum funksiyalar, shu bilan birga

$$\rho(-1)=\rho'(-1)=\rho''(-1)=0,\ \tau(-1)=\tau'(-1)=\tau''(-1)=0,$$
$$\tau(c_k)=\tau'(c_k)=\tau''(c_k)=0,\ k=1,2. \tag{4}$$

$u(x,y)$ funksiya $\overline{D}$ sohada uzluksiz bo'lgani uchun, (3) shartdan $x=-1$ bo'lganda ushbu $\tau(-1)=\mu_1\tau(c_1)+\mu_2\tau(c_2)+\rho(-1)$ muvofiqlashtiruvchi shart o'rinli bo'ladi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida Γ_1 masala $\beta_0\in(-m/2,1)$ holida o'rganilgan. Ushbu paragrafning asosiy natijasi ushbu teoremadan iborat:

1-teorema. *Agar (4) va ushbu*

$$\delta_1+\delta_2<1, \tag{5}$$

shartlar bajarilsa, u holda Γ_1 *masala bir qiymatli yechiladi. Bu yerda* $\delta_k=\mu_k b_k^{1-2\beta}$, $\beta=(m+2\beta_0)/2(m+2)$, $k=1,2$.

Shakli o'zgargan Koshi masalasi yechimining integral ifodasidan foydalanib (3) shartga asosan ekvivalent ravishda ushbu

$$v(x)=\mu_1 b_1^{1-2\beta}v(p_1(x))+\mu_2 b_2^{1-2\beta}v(p_2(x))+F(x) \tag{6}$$

ikki siljishli funksional tenglamani hosil qilamiz. (6) funksional tenglamaning yechimini $x=1$ nuqtada chegaralangan funksiyalar sinfidan izlaymiz, yechimlarning bu sinfi muhimdir, agar bu shartdan voz kechsak, u holda Γ_1 masala nokorrekt bo'lishi mumkin.

Bu funksional tenglamaning yechimini topishda kombinatsiyalashgan ketma-ket yaqinlashish va iteratsiyalar metodidan foydalanilgan. Buning uchun ushbu

$$v_j(x)=\mu_1 b_1^{1-2\beta}v_j(\lambda(x))+\mu_2 b_2^{1-2\beta}v_{j-1}(r(x))+F(x),\ x\in I,$$

rekurrent munosabatdan foydalanilgan, bu yerda $\lambda(x)=p_1(x),\ \ r(x)=p_2(x)$ bundan $v_0(x),v_1(x),v_2(x),...,v_j(x),...$ ketma-ketlik hadlari hosil qilinadi. $v_0(x)$ni ushbu $v_0(x)=\delta_1 v_0(\lambda(x))+F(x)$ funksional tenglamaning yechimi deb qabul qilamiz. Bu funksional tenglama iteratsiya usulida yechiladi:

Birinchi bobning uchinchi paragrafida esa Γ_1 masala (1) tenglama uchun parametrning $\beta_0=-m/2$ qiymatida hamda $p_k(x_0),k=1,2$ chiziqli funksiya bo'lmagan holda o'rganilgan.

Bu hol uchun quyidagi teorema o'rinli:

2-teorema. *Agar ushbu* $\delta_1+\delta_2<1$ *shart bajarilsa, u holda* Γ_1 *masala bir qiymatli yechiladi. Bu erda* $\delta_1=\max\limits_{x\in\overline{I}}\left|\mu_1 p_1'(x)\right|$ *,* $\delta_2=\max\limits_{x\in\overline{I}}\left|\mu_2 p_2'(x)\right|$.

Birinchi bobning to'rtinchi paragrafida Γ_2 masalasi o'rganilgan.

Γ_2 **masala.** D sohada (1) tenglamaning quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x,y)\in C(\overline{D})\cap C^2(D)$ yechimi topilsin:

$$u(x,0)=\tau(x),\ \ x\in\overline{I},$$

$$D_{-1,x}^{1-\beta}u\left[\theta_0(x)\right]=\sum_{k=1}^{l}\mu_k(x)D_{-1,x}^{1-\beta}u\left[\theta_k^*(\mathrm{p}_k(x))\right]+\rho(x),\quad x\in\overline{I}.$$

Bu erda $p_k(x)=b_kx+a_k,\ k=1,2,...,l$ chiziqli funksiyalar, $\mu_k(x),\rho(x)-$ berilgan funksiyalar.

Shuni ta'kidlaymizki, bu yerda AB kesmada l ta nuqta qaraladi: $E_k(\mathrm{c}_k,0)$, $-1<\mathrm{c}_1<c_2<...<c_l<1$.

Γ_2 masalasi Darbu formulasi yordamida l ta siljishli funksional tenglamani yechishga olib kelinadi:

$$\nu(x)=\sum_{k=1}^{l}b_k^{1-2\beta}\mu_k(x)\nu(p_k(x))+F(x),\quad x\in\overline{I}.$$

Ushbu paragrafning asosiy natijasi:

3-teorema. Γ_2 *masalasi ushbu:* $q_1+q_2+...q_l<1$, $\rho(-1)=\rho'(-1)=\rho''(-1)=0$, $\tau(-1)=\tau'(-1)=\tau''(-1)=0$, *shartlar bajarilganda bir qiymatli yechimga ega bo'ladi, bu yerda* $q_k=\max\left|b_k^{1-2\beta}\mu_k(x)\right|,\ k=\overline{1,l}$.

Dissertatsiyaning **"Singulyar koeffitsiyentli Gellerstedt tenglamasi uchun Trikomi shartlili va ichki xarakteristikalarda siljishli shartlili kombinatsiyalashgan masala"** nomli **ikkinchi bobida** singulyar koeffitsiyentli Gellerstedt tenglamasi uchun chegaraviy xarakteristika ixtiyoriy ravishda ikki bo'lakka bo'linib, birinchi bo'lakda Trikomi sharti, ikkinchi bo'lak esa lokal shartdan ozod qilinib, uning o'rniga ichki xarakteristikalarda siljishli shart berilgan masala yechimining yagonaligi va mavjudligi haqidagi teoremalar isbot qilingan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida singulyar koeffitsiyentli Gellerstedt tenglamasi uchun chegaraviy xarakteristikada Trikomi shartlili va ichki xarakteristikalarda siljishli TB masalasi qo'yilgan.

Ω soha xOy tekisligining chekli va bir bog'lamli sohasi bo'lib, u $y>0$ yarim tekislikda yotuvchi va uchlari $A(-1,0)$ va $B(1,0)$ nuqtalarda bo'lgan $\sigma_0: x^2+4(m+2)^{-2}y^{m+2}=1$ normal chiziq bilan, $y<0$ yarim tekislikda esa

$$(signy)|y|^m u_{xx}+u_{yy}+(\beta_0/y)u_y=0,\quad m>0,\ -m/2<\beta_0<1,\qquad (7)$$

tenglamaning AC va BC xarakteristikalari bilan chegaralangan bo'lsin.

Ω^+ va Ω^- orqali Ω sohaning mos ravishda $y>0$ va $y<0$ yarim tekisliklardagi qismlarini belgilaymiz, C_0 va C_1 orqali esa (7) tenglamaning AC va BC xarakteristikalarining $E(c,0)$ nuqtadan chiquvchi xarakteristikalar bilan kesishish nuqtalarini belgilaymiz, bu yerda $c\in I=(-1,1)$ $y=0$ o'qining intervali, shu bilan birga D_0 va D_1 orqali EC_1 va BC_1 xarakteristikalarining $E_1(c_1,0)$ nuqtadan chiquvchi xarakteristikalar bilan kesishish nuqtalarini belgilaymiz, bu yerda $-1<c<c_1<1$.

$[c_1,1]$ kesma nuqtalaridan iborat to‘plamni $[c,c_1]$ kesmaga akslantiradigan $q(x)=\rho-kx$ diffeomorfizmni qaraymiz, bu yerda $\rho=c_1(1-c)/(1-c_1)$, $k=(c_1-c)/(1-c_1)$ va $q(c_1)=c_1$, $q(1)=c$ munosabatlar o‘rinli.

TB **masala.** Ω sohada quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x,y)$ funksiya topilsin:

1) $u(x,y)\in C^2(\Omega^+)$ va Ω^+ sohada (7) tenglamani qanoatlantirsin;
2) $u(x,y)$ funksiya Ω^- sohada (7) tenglamaning R_1 sinfga tegishli umumlashgan yechimidan iborat;
3) AB buzilish chizig‘ida ushbu ulanish sharti bajariladi

$$\lim_{y\to-0}(-y)^{\beta_0}\frac{\partial u}{\partial y}=\lim_{y\to+0}y^{\beta_0}\frac{\partial u}{\partial y},\ x\in I\setminus\{c,c_1\}, \tag{8}$$

bu limitlar $x\to\pm1,\ x\to c,\ x\to c_1$ nuqtalarda $1-2\beta$ dan kichik tartibdagi maxsuslikka ega bo‘lishi mumkin, bu erda $\beta=(m+2\beta_0)/2(m+2),\ \beta\in(0,1/2)$;

4) quyidagi shartlarni bajarsin

$$u(x,y)=\varphi(x),\ (x,y)\in\bar{\sigma}_0, \tag{9}$$

$$u(x,y)\,|_{AC_0}=\psi_0(x),\ x\in[-1,(c-1)/2], \tag{10}$$

$$a_0u[\theta_0^*(x)]+b_0u[\theta_1^*(q(x))]=\psi_1(x),\ x\in[c_1,1], \tag{11}$$

$$u(q(x),0)-u(x,0)=f(x),\quad c_1\le x\le 1, \tag{12}$$

bu yerda a_0,b_0 berilgan sonlar bo‘lib, $a_0^2+b_0^2\neq0$. $\theta_0^*(x_0)$ va $\theta_1^*(x_0)-$ mos holda E_1D_1 va E_1D_0 xarakteristikalarning, $M(x_0,0)$, $M(q(x_0),0)$ nuqtalardan chiquvchi xarakteristikalar bilan kesishish nuqtalari affikslari, bunda $x_0\in[c_1,1]$, $q(x_0)\in[c,c_1]$, $\varphi(x)\in C^{0,\alpha}(\bar{I})$, $\psi_0(x)\in C^{1,\alpha}[-1,(c-1)/2]$, $\psi_1(x),f(x)\in C^{1,\alpha}[c_1,1]$, $\psi_0(-1)=0$, $f(c_1)=0$, $\varphi(x)=(1-x^2)\tilde{\varphi}(x)$, $\tilde{\varphi}(x)\in C^{0,\alpha}(\bar{I})$ munosabatlar o‘rinli. Agar $c=1$ bo‘lsa TB masalasi Trikomi masalasiga aylanadi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida TB masalasi yechimining yagonaligi isbotlangan.

4-teorema. (A.V.Bitsadzening ekstremum prinsipiga o‘xshash prinsip). *Ushbu* $\psi_0(x)\equiv0,\psi_1(x)\equiv0,f(x)\equiv0,$

$$a_0\ge0,\ b_0\ge0,\ \ a_0^2+b_0^2\neq0 \tag{13}$$

shartlar bajarilganda, TB masalaning yechimi o‘zining eng katta musbat qiymatlarini (EKMUSQ) va eng kichik manfiy qiymatlarini (EKMANQ) yopiq $\bar{\Omega}^+$ *sohaning* $\bar{\sigma}_0$ *chizig‘ida erishadi.*

Ω^- sohada (7) tenglama uchun shakli o‘zgargan Koshi boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiruvchi masala yechimini beruvchi Darbu formulasidan foydalanib, (10) va (11) shartlarga ko‘ra, mos ravishda, ushbu munosabatlarni hosil qilamiz

$$\nu(x)=\gamma D_{-1,x}^{1-2\beta}\tau(x)+\psi_3(x),\quad -1<x<c, \tag{14}$$

$$a_0\nu(x)+b_0k^{1-2\beta}\nu(q(x))=\gamma(a_0+b_0)D_{c,x}^{1-2\beta}\tau(x)=\psi_2(x),\qquad c_1<x<1, \tag{15}$$

bu yerda

$$\gamma = 2\Gamma(2\beta)\Gamma(1-\beta)((m+2)/4)^{2\beta} / \Gamma(\beta)\Gamma(1-2\beta).$$

4-teorema (14) va (15) munosabatlarga va (8) ulanish shartiga asosan, Zaremba-Jiro prinsipi, kasr tartibli differensial operator uchun ekstremem prinsiplarini qo‘llab standart metod yordamida isbotlanadi.

Bu teoremadan TB masala yechimining yagonaligi kelib chiqadi.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida TB masalasi yechimining mavjudligi isbotlangan.

5-teorema. *(13) shart va ushbu* $\beta_0 > (1-m)/3$ *tengsizlik bajarilganda, TB masala bir qiymatli yechiladi.*

Bu teoremani isbotlashda, TB masalasi $\tau_0(x) = \tau(x),\ \ x \in (-1,c),\ \ \tau_1(x) = \tau(x),$ $x \in (c_1,1)$ noma’lum funksiyalarga nisbatan ekvivalent ravishda singulyar integral tenglamalar sistemasini tadqiq qilishga keltirilgan.

Ω^+ sohadan I intervalga keltirilgan $\tau(x)$ va $\nu(x)$ noma’lum funksiyalar orasidagi ushbu munosabatni keltiramiz:

$$\nu(x) = -k_2(1-\beta_0)\frac{m+2}{2}\left\{\frac{\tau(1)}{(1-x)^{1-2\beta}} + \frac{\tau(-1)}{(1+x)^{1-2\beta}} + \right.$$

$$\left. + \int_{-1}^{1}\frac{(x-t)\tau'(t)dt}{|x-t|^{2-2\beta}} - (2\beta-1)\int_{-1}^{1}\frac{\tau(t)dt}{(1-xt)^{2-2\beta}}\right\} + \Phi(x),\ x \in I. \qquad (16)$$

Trikomi sharti (10) asosida hosil qilingan (14) munosabatdan, (16) tenglikka ko‘ra $\nu(x)$ ni yo‘qotib, ushbu singulyar integral tenglamani hosil qilamiz:

$$\tau_0(x) - \lambda\int_{-1}^{c}\left(\frac{1+x}{1+t}\right)^{1-2\beta}\left(\frac{1}{t-x} - \frac{1}{1-xt}\right)\tau_0(t)dt = g_0(x), \qquad x \in (-1,c), \qquad (17)$$

bu yerda

$$g_0(x) = \lambda k\int_{c_1}^{1}\left(\frac{1+x}{1+q(t)}\right)^{1-2\beta}\frac{\tau_1(t)dt}{q(t)-x} + L_1[\tau_1] + F_5(x), \quad x \in (-1,c). \qquad (18)$$

(18) ifodadagi birinchi integral operator yadrosi $(x,t) = (c,1)$ (bu erda $q(1) = c$) nuqta birinchi tartibli ajratilgan maxsuslikka ega va shu sababli bu integral operator ajratib olingan. (17) ifodani $\tau_0(x)$ noma’lum funksiyaga nisbatan Trikomining singulyar integral tenglamasi sifatida qarash mumkin va uning o‘ng tomoni faqat $\tau_1(x)$ ga bog‘liq.

1-lemma. *Agar* $g_0(x),\ x \in (-1,c)$ *funksiya Gyolder shartini qanoatlantirsa va* $g_0(x) \in L_p(-1,c),\ p > 1$ *bo‘lsa, u holda (17) tenglamaning yechimi* $H(-1,c)$ *funksiyalar sinfida, ya’ni* $(1+x)^{2\beta-1}\tau_0(x)$ *funksiya* $(-1,c)$ *intervalning* $x = c$ *o‘ng chetki nuqtasida chegaralangan, kesmaning* $x = -1$ *chap chetki nuqtasida esa chagaralanmagan funksiyalar sinfida*

$$\tau_0(x) = \cos^2(\alpha\pi)g_0(x) +$$

$$+\frac{\sin(2\alpha\pi)}{2\pi}\int_{-1}^{c}\left(\frac{(c-x)(1+x)^2}{(c-t)(1+t)^2}\right)^{\alpha}\left(\frac{1-cx}{1-ct}\right)^{\alpha}\left(\frac{1}{t-x}-\frac{1}{1-xt}\right)g_0(t)dt,$$
$$x\in(-1,c), \qquad (19)$$

formula orqali ifodalanadi. Bu yerda $\alpha=(1-2\beta)/4$.

(19) yechimga (18) ifodadan $g_0(x)$ ning qiymatini qo‘yib, standart hisoblashlardan so‘ng $\tau_0(x)$ va $\tau_1(x)$ o‘rtasida ushbu tenglamani hosil qilamiz

$$\tau_0(x)=\int_{c_1}^{1}K(x,t)\tau_1(t)dt+L_3[\tau_1]+F_6(x)\ \ x\in(-1,c), \qquad (20)$$

bu yerda $K(x,t)$-regulyar yadro, $L_3[\tau_1]$-regulyar operator, $F_6(x)$-ma’lum funksiyalar.

Endi $\tau_0(x)$ va $\tau_1(x)$ noma’lum funksiyalar o‘rtasidagi ikkinchi singulyar integral tenglamani keltirib chiqaramiz, buning uchun (16) tenglikka ko‘ra (15) munosabatdan $v(x)$ ni yo‘qotib, (20) ni hisobga olib ushbu ikkinchi singulyar integral tenglamani hosil qilamiz

$$\tau_1(x)-\lambda\int_{c_1}^{1}\left(\frac{x-c_1}{t-c_1}\right)^{1-2\beta}\left(\frac{1}{t-x}-\frac{a}{1-xt}\right)\tau_1(t)dt=g_1(x),\quad x\in(c_1,1), \qquad (21)$$

bu yerda

$$g_1(x)=\lambda ak^{2\beta}\int_{c_1}^{1}\left(\frac{x-c_1}{t-c_1}\right)^{1-2\beta}\frac{\tau_1(t)dt}{x-q(t)}-\lambda bk^{1-2\beta}\int_{c_1}^{1}\left(\frac{x-c_1}{t-c_1}\right)^{1-2\beta}\frac{\tau_1(t)dt}{t-q(x)}+$$
$$+L^*[\tau_1]+F_3(x),\quad x\in(c_1,1). \qquad (22)$$

Shuni qayd etamizki, $g_1(x)$ dagi birinchi ikkita integral operatorlar $(x,t)=(c_1,c_1)$ nuqtada yakkalangan birinchi tartibli maxsuslikka ega, shuning uchun ham ular ajratib yozilgan, bu yerda $q(c_1)=c_1$, $L^*[\tau_1]-$regulyar operator, $F_3(x)-$ ma’lum funksiya.

2-lemma. *Agar* $g_1(x)$, $x\in(c_1,1)$ *funksiya Gyolder shartini qanoatlantirsa va* $g_0(x)\in L_p(c_1,1), p>1,$ *bo‘lsa, u holda (21) tenglamaning yechimi* $H(c_1,1)$ *funksiyalar sinfida, ya’ni* $(x-c_1)^{2\beta-1}\tau_1(x)$ *funksiya* $(c_1,1)$ *intervalning* $x=c_1$ *chap chetki nuqtasida chegaralanmagan, kesmaning* $x=1$ *o‘ng chetki nuqtasida esa chegaralangan funksiyalar sinfida*

$$\tau_1(x)=\cos^2(\alpha\pi)g_1(x)+$$
$$+\frac{\sin(2\alpha\pi)}{2\pi}\int_{c_1}^{1}\left(\frac{x-c_1}{t-c_1}\right)^{3\alpha}\left(\frac{1-x}{1-t}\right)^{2\alpha}\left(\frac{1-c_1t}{1-c_1x}\right)^{\alpha}\left(\frac{1}{t-x}-\frac{a}{1-xt}\right)g_1(t)dt,\quad x\in(c_1,1), \qquad (23)$$

formula orqali ifodalanadi.

(23) yechimga (22) tenglikdan $g_1(x)$ funksiya qiymatini olib borib qo‘ysak, ushbu Viner-Xopf integral tenglamasini hosil qilamiz

$$\rho(y)=\int_0^{\infty}K(y-t)\rho(t)dt+R_2[\rho]+M_2(y),\quad 0<y<\infty, \tag{24}$$

bu yerda $\rho(y)=\tau_1[c_1+(1-c_1)e^{-y}]e^{(3\alpha-(1/2))y}$, $R_2[\rho]=R_1(\rho)e^{(3\alpha-(1/2))y}$ - regulyar operator, $M_2(y)=M_1(y)e^{(3\alpha-(1/2))y}$ - ma'lum funksiya,

$$K(x)=\lambda\cos(\alpha\pi)\left[\frac{ak^{1-3\alpha}}{ke^{x/2}+e^{-x/2}}-\frac{bk^{3\alpha}}{e^{x/2}+ke^{-x/2}}\right].$$

$K(x)$ yadro uzluksiz defferensiallanuvchi va cheksizlikda ko'rsatkichli tartibda kamayuvchi. $\beta_0>(1-m)/3$ bo'lganda $3\alpha-1/2<0$, bundan esa $R_2[\rho]$ va $M_2(y)$ larning $y\to+\infty$ da ko'rsatkichli tartibda kamayuvchi ekanligi kelib chiqadi. (24) integral tenglama indeksi 0 ga teng. Bundan esa (24) tengalmaga Furye almashtirishini qo'llab, analitik funksiyalar nazariyasining Riman masalasiga kelamiz va o'z navbatida bu masala yechimi uchun Fredgolmning 2-tur integral tenglamasi hosil qilinadi. Oxirgi tenglamaning bir qiymatli yechimining mavjudligi, TB masalasi yechimning yagonaligidan kelib chiqadi.

Dissertatsiyaning **"Singulyar koeffitsiyentli aralash tipdagi tenglama uchun chegaraviy xarakteristikada to'liq berilmagan Trikomi shartlili va buzilish chizig'ida Frankl shartiga o'xshash shartlili masala haqida"** deb nomlangan uchinchi bobi noma'lum funksiyaning qiymati chegaraviy xarakteristikaning bir qismida berilgan, buzilish chizig'ining AB kesmasi bo'yicha kesimning turli qirg'oqlarida Frankl shartiga o'xshash shartlili bir masalaning korrektligi o'rganilgan.

Uchinchi bob birinchi paragrafida TF **masalasi ta'riflangan.** D^+ ва D^- bilan D sohaning $y>0$ ва $y<0$ yarim tekisliklardagi qismlarini, C_0 orqali esa (7) tenglamaning $E(c,0)$ nuqtadan chiquvchi xarakteristikasining AC xarakteristika bilan kesishish nuqtalarini belgilaymiz. Bunda $c\in I=(-1,1)$, $y=0$ o'qining intervali.

Ushbu $p(x)\in C^1[-1,c]$ funksiyani kiritamiz. Bu funksiya $[-1,c]$ kesmani $[c,1]$ kesmaga akslantiruvchi diffeomorfizm bo'lsin, $p'(x)<0,\ p(-1)=1,\ p(c)=c.$

Bunday funksiyaga misol sifatida quyidagi chiziqli funksiyani keltiramiz: $p(x)=\delta-kx,$ bu yerda $k=(1-c)/(1+c),\ \delta=2c/(1+c)$.

TF **masala.** D sohada quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x,y)$ funksiya topilsin:

1) $u(x,y)$ funksiya yopiq $\overline{D}^-$ va $\overline{D}^+$ sohalarning har birida uzluksiz;
2) $u(x,y)$ funksiya $C^2(D^+)$ sinfga tegishli va D^+ sohada (7) tenglamani qanoatlantiradi;
3) $u(x,y)$ funksiya D^- sohada (7) tenglamaning R_1 sinfga tegishli umumlashgan yechimi;
4) AB parabolik buzilish chizig'ida ushbu umumiy ulanish sharti bajariladi

$$u(x,-0)=a(x)u(x,+0)+a_0(x),\ x\in\overline{I}, \tag{25}$$

$$\lim_{y\to-0}(-y)^{\beta_0}\frac{\partial u}{\partial y}=b(x)\lim_{y\to+0}y^{\beta_0}\frac{\partial u}{\partial y}+b_0(x),\quad x\in I\setminus\{c\},\tag{26}$$

bu limitlar $x\to\pm1,\ x\to c$ da $1-2\beta$ dan kichik tartibdagi maxsuslikka ega bo‘lishi mumkin, bu erda $\beta=(m+2\beta_0)/2(m+2)\in(0,1/2)$, $a(x),\ b(x),\ a_0(x),\ b_0(x)-$ berilgan uzuksiz differensiallanuvchi funksiyalar;

5) ushbu shartlar bajariladi

$$u(x,y)\big|_{\sigma_0}=\varphi(x),\qquad -1\le x\le1,\tag{27}$$

$$u(x,y)\big|_{AC_0}=\psi(x),\qquad -1\le x\le(c-1)/2,\tag{28}$$

$$u(p(x),-0)=\mu(x)u(x,+0)+f(x),\qquad -1\le x\le c,\tag{29}$$

(25)-(29) shartlarda berilgan $a_0(x), a(x), b_0(x), b(x), \varphi(x), \psi(x), \mu(x), f(x)-$ uzuksiz differensiallanuvchi funksiyalar bo‘lib, $\varphi(x)$ uchun quyidagi talab o‘rinli:

$$\varphi(x)=(1-x^2)\tilde{\varphi}(x),\qquad -1\le x\le1.$$

Uchinchi bob ikkinchi paragrafida *TF* masala (7) tenglamadagi β_0 parametrning $-m/2<\beta_0<1$ holi uchun o‘rganilgan.

TF masalaning yechimi uchun A.V.Bitsadzening ekstremum prinsipiga o‘xshash quyidagi prinsip o‘rinli ekanligi ko‘rsatilgan.

6-teorema. *Ushbu* $\psi(x)\equiv0, f(x)\equiv0, a_0(x)\equiv b_0(x)\equiv0$,

$$a'(x)\ge0, a(x)>0,\quad b(x)>0,\quad 0<\mu_1(x)<1,\tag{30}$$

shartlar bajarilsa, TF masalasining yechimi $\overline{D}^+$ *sohada o‘zining eng katta musbat qiymatini va eng kichik manfiy qiymatini faqat* $\overline{\sigma_0}$ *normal chiziq nuqtalarida qabul qiladi, bu yerda* $\mu_1(x)=\mu(x)/a(p(x))$.

Natija. *(30) shart bajarilsa, TF masala bittadan ortiq yechimga ega bo‘lmaydi.*

7-teorema. *Agar ushbu*

$$\lambda\pi\, k^{(1/2)-\alpha}\cos\alpha\pi<1\tag{31}$$

shart bajarilsa, TF masala bir qiymatli yechimga ega, bunda $\lambda=\cos\beta\pi/\pi(1+\sin\beta\pi)$.

Bu teoremani isbotlash uchun *TF* masala noma’lum $\tau(x)=u(x,0)$ funksiyaga nisbatan ushbu Trikomining singulyar integral tenglamasiga ekvivalent ravishda keltirilgan

$$\tau(x)-\lambda\int_{-1}^{c}\left(\frac{1+x}{1+t}\right)^{1-2\beta}\left(\frac{1}{t-x}-\frac{1}{1-xt}\right)\tau(t)\,dt=g_0(x)\ ,\ x\in(-1,c),\tag{32}$$

bu yerda

$$g_0(x)=-\lambda k\int_{-1}^{c}\frac{p'(s)\tau(s)ds}{p(s)-x}+R[\tau]+F_1(x),\qquad x\in(-1,\mathrm{c}),\tag{33}$$

$R[\tau]$- regulyar operator, $F_1(x)$- berilgan funksiya.

(33) ifodaning o‘ng tomonidagi birinchi integral ostidagi ifoda $x=c,\, s=c,$ $(p(c)=c)$ nuqtada birinchi tartibli yakkalangan maxsuslikka ega, shuning uchun bu integral operator alohida ajratib yozilgan.

(32) tenglamaning yechimini, $(1+x)^{2\beta-1}\tau(x)$ funksiya $x=c$ nuqtada chegaralangan va $x=-1$ nuqtada $1-2\beta$ dan kichik tartibli cheksizlikka aylanishi mumkin bo‘lgan $H(-1,c)$ Gyolder funksiyalar sinfida izlaymiz.

(32) tenglamaning yechimi $h(c)$ sinfda

$$\tau(x)=\cos^2\alpha\pi\, g_0(x)+$$

$$+\frac{\sin 2\alpha\pi}{2\pi}\int_{-1}^{c}\left(\frac{(c-x)(1+x)^2}{(c-t)(1+t)^2}\right)^{\alpha}\left(\frac{1-cx}{1-ct}\right)^{\alpha}\left(\frac{1}{t-x}-\frac{1}{1-xt}\right)g_0(t)dt,\; x\in(-1,c) \quad (34)$$

orqali ifodalanadi, bu yerda $\alpha=(1-2\beta)/4$.

$g_0(x)$ning (33) ifodasini (34) munosabatga qo‘yib, ushbu

$$\rho(y)=\lambda k^{1-\alpha}\cos\alpha\pi\int_0^{\infty}K(y-t)\rho(t)dt+R_4[\rho]+F_3(y) \quad y\in[0,+\infty) \qquad (35)$$

Viner-Xopf integral tenglamasiga ega bo‘lamiz. Bu yerda $\rho(y)=\tau[c+(1-c)e^{-y}]e^{(\alpha-(1/2))y}$ $R_4(\rho)=R_3[\tau]e^{(\alpha-(1/2))y}-$ regulyar operator, $F_3(y)=F_2(x)e^{(\alpha-(1/2))y}$ $-$berilgan funksiya.

$K(x)$ funksiya uzluksiz va cheksizlikda eksponensial tartibda kamayadi. $\alpha\in(0,1/4)$ bo‘lganda $\alpha-1/2$ ifoda manfiy bo‘lgani sababli, $R_4[\rho]$ operator va $F_3(y)$ funksiya cheksizlikda ko‘rsatkichli tartibda kamayuvchi bo‘ladi.

(35) integral tenglama Furye almashtirishi orqali Rimanning chegaraviy masalasiga keltirilib, (31) shartga asosan bir qiymatlili ravishda Fredgolmning ikkinchi tur integral tenglamasiga olib kelinadi va oxirgi tenglamaning bir qiymatli yechilishi TF masalasi yechimining yagonaligidan kelib chiqadi.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafida TF masala (7) tenglama uchun β_0 parametrining $\beta_0=-m/2$ holi uchun o‘rganilgan.

XULOSA

Ushbu dissertatsiya ishi singulyar koeffitsiyentli buziluvchan giperbolik tipdagi tenglama uchun Bitsadze-Samarskiy masalasini, singulyar koeffisiyentli Gellerstedt tenglamasi uchun F.Trikomi va A.M.Naxushevning siljishli masalalari shartlarini bir masala ta’rifida birlashtirgan masalani, Trikomi sharti xarakteristikada to‘liq berilmagan, buzilish chizig‘ida esa Frankl shartiga o‘xshash shart berilgan masalaning korrektligini isbotlashga bag‘ishlangan.

Dissertatsiya barcha natijalari yangi va ular quyidagilardan iborat:

SKBGTT uchun izlanayotgan yechimning qiymatlarini chegaraviy va unga parallel ikki ichki xarakteristikalardagi qiymatlari bilan bog‘lovchi Bitsadze-Samarskiy shartlili masala birinchi marta tadqiq qilingan;

funksional tenglama yechimi izlanadigan sinfning muhimligi kontr misol yordamida ko‘rsatilgan;

bir necha siljishga ega bo‘lgan funksional tenglama ketma-ket yaqinlashish va iterasiya metodlarning kombinatsiyalashgan metodi yordamida yechilgan;

F.Trikomi masalasi va A.M.Naxushevning ichki xarakteristikada siljishli masalasi bir masalada ta’riflanib, birinchi marta o‘rganilgan;

S.G.Mixlin tomonidan takomillashtirilgan Karlemanning regulyarizatsiyalash metodi yordamida o‘ng tomonida nofredgolm operatori bo‘lgan singulyar integral tenglamalar Viner-Xopf integral tenglamasiga olib kelingan;

SKATT uchun Trikomi sharti xarakteristikada to‘liq berilmagan va buzilish chizig‘ida Frankl shartiga o‘xshash shartlili yangi masala yechimining mavjudligi va yagonaligi haqidagi teoremalar isbotlangan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM.01.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

МИРСАБУРОВА ГУЛБАХОР МИРАХМАТОВНА

КОМБИНИРОВАННЫЕ ЗАДАЧИ С ЛОКАЛЬНЫМИ И НЕЛОКАЛЬНЫМИ КРАЕВЫМИ УСЛОВИЯМИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ГЕЛЛЕРСТЕДТА С СИНГУЛЯРНЫМ КОЭФФИЦИЕНТОМ

01.01.02 – Дифференциальные уравнения и математическая физика

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

ТАШКЕНТ – 2024

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером № B.2024.2.PhD/FM498.

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (http://ik-fizmat.nuu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (http://www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Рузиев Менглибай Холтожибаевич** доктор физико-математических наук, старший научный сотрудник
Официальные оппоненты:	**Ашуров Равшан Раджабович** доктор физико-математических наук, профессор
	Уринов Ахмаджон Кушакович доктор физико-математических наук, профессор
Ведущая организация:	**Самаркандский государственный университет**

Защита диссертации состоится «____» _____________2024 года в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 при Национальном университете Узбекистана имена Мирзо Улугбека. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99878)227-12-24, факс: (+99878) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за №_____). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99878) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «____» _______________2024 года.
(протокол рассылки №________ от «____» _______________2024 года).

А. Садуллаев
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д. ф.-м. н., академик

Р. М. Жураев
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д. ф. ф.-м. н. (PhD)

Ш.А.Алимов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д. ф.-м. н., академик

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире в научных и практических исследованиях зачастую многие математические модели, часто приводятся к исследованию вырождающихся гиперболических уравнений и уравнений смешанного типа. Актуальными являются исследования нестандартно поставленных задач для **вырождающегося гиперболического уравнения с сингулярными коэффициентами (ВГУССК) и уравнений смешанного типа с сингулярными коэффициентами (УСТССК),** которые обобщают классические задачи для гиперболических уравнений и уравнений смешанного типа. В настоящее время во многих мировых научных школах исследование краевых задач с комбинированными локальными и нелокальными условиями для ВГУССК и для УСТССК является одним из основных научных направлений современной математики. Теория локальных и нелокальных краевых задач играет важную роль в технике и природе, в частности: в газовой динамике, процессах состояния и разработок нефтяных пластов, фильтрации грунтовых вод, переноса тепла и массы в объекте, имеющем сложное строение, электрических колебаний в проводах, движения жидкости в канале, окруженном пористой средой, аэродинамике и в других процессах, явлениях.

Во всем мире проведен и проводится ряд научных исследований для краевых задач с комбинированными локальными и нелокальными условиями для ВГУССК и для УСТССК в практических приложениях. Исследование этих задач сводится к исследованию нестандартных сингулярных интегральных уравнений Трикоми с числовым параметром в несингулярной части ядра и нефредгольмовым оператором в правой части уравнения. Это новый тип сингулярных интегральных уравнений, который мало исследован, в связи с этим одной из важных задач являются целевые научные исследования в этом направлении, в том числе: для уравнений с сингулярными коэффициентами определение свойств ограниченности или неограниченности значений решения уравнения и его производных в окрестности линии изменения его типа; исследование комбинированных краевых задач с локальными и нелокальными условиями; постановка и изучение корректных задач в зависимости от значений коэффициентов при младших членах уравнения, разработка алгоритма регуляризации сингулярных интегральных уравнений нового типа, вычисление интегралов Фурье нового вида с помощью теории вычетов комплексного анализа. Необходимость научные исследований в вышеуказанных направлениях определяют актуальность диссертации.

В нашей республике особое внимание уделяется широкомасштабной работе по развитию фундаментальных наук, в том числе математической физики, математической биологии, исследований динамики жидкости и газа, динамики подземных и надземных вод, аэродинамики и достигнуты определенные результаты. Основными задачами и направлениями деятельности математической науки являются: исследования на уровне международных стандартов по таким приоритетным направлениям, «Алгебра и ее приложения, дифференциальные уравнения и их приложения, математическое моделирование нелинейных систем, динамические системы и их приложения, стохастический анализ, медико-биологическая информатика, вычислительная математика»[2]. В целях решения паставленных задач приоритетными являются развитие теории УСТССК и ВГУССК, а также исследования для них комбинированных локальных и нелокальных задач.

